

ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

THE PROBLEM OF THE PERFECT PERSON IN YUSUF HAMADANI'S "RUTBAT UL-HAYAT"

Sanjar Barnoyev

independent researcher, deputy director

Bukhara State University

Bukhara Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Human, creature, animal, lust, vision, close, heart, memory, appearance, inner, lower.

Received: 13.03.25

Accepted: 15.03.25

Published: 17.03.25

Abstract: This article discusses Yusuf Hamadoni's work "Rutbat ul-hayat" and his views on the perfect person, ways to improve him, and the aspects that distinguish him from other living creatures.

YUSUF HAMADONIYNING "RUTBAT UL-HAYOT" ASARIDA KOMIL INSON MUAMMOSI

Sanjar Barnoyev

mustaqil tadqiqotchi, direktori o'rinnbosari

Buxoro davlat universiteti

IIV Buxoro akademik litseyi

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Inson, maxluqot, ulov, nafs, basirat, yaqin, qalb, zikr, zohir, botin, tuban.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yusuf Hamadoniyning "Rutbat ul-hayot" asari va undagi komil inson haqida qarashlari, uni kamol toptirish yo'llari, insonning boshqa tirik mavjudotlardan farqlantiruvchi jihatlari haqida so'z boradi.

ПРОБЛЕМА ИДЕАЛЬНОГО ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЮСУФА ХАМАДАНИ «РУТБАТ УЛЬ-ХАЯТ»

Санжар Барноев

независимый исследователь, заместитель директора

Бухарский государственный университет

Бухарский академический лицей МВД

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Человек, существо, лошадь, похоть, озарение, близкий, душа, зикр, захир, батин, дно.

Аннотация: В данной статье речь идет о произведении Юсуфа Хамадони "Рутбат ул-хаёт" и его взглядах на совершенного человека, путях его совершенствования, отличительных аспектах человека от других живых существ.

Kirish. Insoniyat tamaddunining ayni paytdagi nuqtasi uning komillikka intilishi natijasi deyish mumkin. Garchi so‘nggi ikki asrda insoniyat ilmiy, iqtisodiy va texnikaviy taraqqiyotga ko‘proq urg‘u berib kelayotgan bo‘lsada, ruhiy-ma’naviy rivojlanishga ehtiyoj har bir jamiyatda tobora ortib boryapti. Aqliy taraqqiyot har doim ham inson hayoti, orzu istaklari va kelajagi uchun birdek ijobjiy xizmat qilolmasligini zamonamiz ziylolilari allaqachon tushunib etishgan. Agar inson ruhiy-ma’naviy, axloqiy yuksaklikka intilmasa u erishgan barcha yutuqlar qiymatsiz bo‘lib qolaveradi. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida ommaviy madaniyat, turli ko‘rinishdagi ekstremizm va radikalizm (biz negadir bu tushunchalarning faqatgina diniy jihatidan xavotirga tushamiz), feminizm, kosmopolitizm (uning salbiy jihatlarini e’tiborsiz qoldirishga haqqimiz yo‘q), pedofiliya, bir jinslilarning hayot tarzini ommalashtirishni qo‘llab-quvvatlash harakatlari va boshqa illatlar insoniyat ma’naviy yuksalishga g‘oyatda muhtoj ekanligiga dalolat qilmoqda. Bu illatlar globallashuv orqali xavf solayotgan bo‘lsa, korrupsiya, nepotizm, mahalliychilik kabi o‘z jamiyatimizning illatlari ham taraqqiyotimizga ulkan to‘sif bo‘lyapti.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Komil inson muammozi tasavvuf falsafasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mutasavvuflarning hayot yo‘li, falsafiy qarashlari, ma’naviy merosi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular nafaqat o‘zлari komillikka intilganlar, balki o‘z jamiyatlarida barkamol inson tarbiyasini ham o‘z zimmalariga olganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Shunday mitafakkirlardan biri Xoja Yusuf Hamadoniydir (1048–1141). Mazkur tadqiqotimizda Hamadoniyning “Rutbat hayot” risolasini asosiy manba qilib oldik. Mazkur asarda hayot, tinchlik, xotirjamlik, inson, uning koinotdagi o‘rni, komillik yo‘li haqidagi masalalar savol va javob tarzida bayon etilgan. Mazkur ishda “Rutbat hayot” asaridagi komil inson haqidagi g‘oyalarni qiyisiy-tahliliy va germenevtik usulda tahlil etishga harakat qildik.

Muhokama va natijalar. “Rutbat ul-hayot” Xoja Yusuf Hamadoniyning bizgacha etib kelgan eng salmoqli asarlaridan biridir. “Rutbat ul-hayot”ning yagona nusxasi bugungi kunda Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Ayosofya bo‘limida saqlanmoqda [1]. Asar 2910 inventar raqami ostidagi to‘plam tarkibida bo‘lib, to‘plamda shuningdek Imom G‘azzoliyning “Tuhfat ul-muluk”, “Nasihat ul-muluk”, Avhaduddin Kirmoniyning ruboiylar devoni, Majduddin Bag‘dodiyning bir risolasi, Sadriddin Kunyoviyning ikki risolasi, Ahmad G‘azzoliyning

“Ayniyya” asari o‘rin olgan. To‘plam 367 varoqdan iborat bo‘lib, 1307 yilda ko‘chirilgan eng nodir forsiy qo‘lyozmalardan biri hisoblanadi.

To‘plamda mazkur asar "Komil va olajanob shayx, tasavvuf sultonii va ilm talab qiluvchilarining piri Yusuf ibn Ayyub al-Hamadoniyning, Alloh uning aziz ruhini muqaddas qilsin, nutqlaridan iborat "Rutbat ul-hayot" kitobi, degan nom bilan o‘rin olgan.

Mazkur asar dastlab eronlik olim Doktor Muhammad Amin Riyohiy tomonidan fors tilida nashrga tayyorlangan [3]. Keyinchalik turk olimi Doktor Najdat To‘sun asarni turk tilidagi nashrini e’lon qiladi [5].

Yuqoridagi ikki nashr asosida “Rutbat ul-hayot”ni o‘zbek tiliga Nodirxon Hasan va Sayfiddin Sayfulloh tarjima qilib e’lon qiladilar.

2016-yilda taniqli tasavvufshunos olim professor G. Navro‘zova va N. Nurmatovalar Yusuf Hamadoniyning hayot yo‘li, ma’naviy merosi hamda tasavvuf tarixidagi xizmatlari mukammal ohib berilgan “Yusuf Hamadoniy etti pirning tabarruk ustozi” deb nomlangan monografiyani e’lon qiladilar. Mazkur monografiyada Hamadoniyning “Rutbat ul-hayot” asarining mazmun-mohiyati juda mohirona ohib berilganiga guvoh bo‘lamiz [2].

Doktor Muhammad Amin Riyohiyning fikricha fors tasavvufiy asarlari orasida Xoja Yusufning “Rutbat ul-hayot”i o‘ziga xos noyob asar bo‘lib, muallifning o‘zi fors tilida tasavvufiy xarakter va mazmundagi asarlar uchun yo‘l ohib bergen ilk mutasavviflardan hisoblanadi [3:25].

Hajmi kichik bo‘lishiga qaramay mazkur asar mavzu, mazmun va tarbiyaviy-ma’rifiy yondoshuv nuqtai nazaridan g‘oyat qimmatlidir. Asar sodda, ravon, tushunarli tilda yozilgan bo‘lib, aynan shu sifatlari uni mavzuga taalluqli boshqa asarlardan ko‘ra ko‘proq shuhrat qozonganiga sababchi bo‘lgan, deyish mumkin. Uning boshqa asarlardan farqli yana bir jihat - aslligi, ungacha yozilgan asarlarga murojaat qilinmaganligi, havola berilmaganligi va muallif savollarga javob bera turib faqatgina o‘ziga tegishli fikr, mulohaza va g‘oyalarni ixcham, tushunarli tilda bayon etganligidir.

Yuqoridagi xususiyatlardan tashqari, risolada hijriy beshinchi va oltinchi asrlar (X1-X11) nasrining leksika va grammatika nuqtai nazaridan o‘ziga xos xususiyatlari va xususiyatlariga rioya qilinishi e’tiborni tortadi: bir fe’lning bir necha ergash gaplarda takrorlanishi, prefiksli fe’llarning ko‘pligi, so‘roq va undov aliflarining ko‘p qo‘llanilishi, arabcha sifatlardan infinitivlar yasalishi, arabcha otlar ko‘pligidan tegishli qo‘sishchalarini qo‘sish orqali forsiyga xos otlarning yasalishi shular jumlasidandir [3:50].

Asar hijriy VII-VIII (mil. XII-XIII) asr nas’h imlosida, xato va kamchiliklarsiz, ravon o‘qiladigan, hattotlikning yuksak namunalariga xos tarzda ko‘chirilgan.

Yusuf Hamadoniyning “Rutbat ul-hayot” asari din va tasavvufning nozik savollariga javob tarzida yozilgan. O’n to’rtta savolga javob berish jarayonida inson kamoloti uchun muhim bo‘lgan tushunchalar – inson, uning tanasi, nafsi, qalbi, ruhi, islom, iymon, ehson, zikr, fikr, amal, dunyo va oxirat bilan bog‘liq masalalar atroflicha tahlil etilgan.

“Barcha narsa inson va uning baxt-saodati uchun” bo‘lgan jamiyatimizning farovonligi va taraqqiyoti har bir insonning o‘zligini anglashi, hayotini mazmunli o‘tkazishiga bog‘liq. Yusuf Hamadoniy mazkur asarida insonni barcha maxluqotlar ichida eng ulug‘ xilqat ekanligini ta’kidlagan. Ammo, go‘zal taqvimda yaratilgan insonda kamol topib, ilohiylik darajasiga yuksalish baxti bilan birga tanazzulga uchrab, hayvoniy darajaga tushib qolish xavfi ham mavjud. Asarda “insoniylik” va “hayvoniylk” sifatlari, belgi va xususiyatlari ochib berilgan.

Yusuf Hamadoniy asarda inson hayotini uch bosqichga: islom bilan yashash, iymon bilan yashash va ehson bilan yashashga ajratadi va har bir daraja uchun xos bo‘lgan mazkur asoslarni tahlil etadi.

“Rutbat ul – hayot” asari “Tirik (jonli) kim va tiriklik (hayot) nima?” – deb berilgan savolga Yusuf Hamadoniyning: “Bilginki, basirat va yaqin ahli qoshida tirik – bu tinch – osuda kishidir. Tiriklik esa tinchlik - xotirjamlikdir” [5:10-11], degan javobi bilan boshlanadi. Yusuf Hamadoniy asarda insonlarning bir qismi dunyo, ya’ni moddiy narsalar bilan osuda , tinch va sokindir, ikkinchi qismi esa ilohiy, ma’naviy narsalar bilan xotirjamdir, deb yozadi. Birinchi guruh dunyo moli, bezaklarini jamlash, to‘plash bilan yashaydi. Bunday hayot tarzini Yusuf Hamadoniy aldanish, juda qadrsiz va tuban daraja, deb ta’riflaydi. Chunki, bunday odam hayvon, hasharot, qushlar bilan barobardir, ular kabi erta-yu kech qornini to‘ydirish g‘amidadir.

“Parranda, darranda va hasharotlarni bo‘ysundirgan, fahmu aql va omonat yuklatilgan muazzam va mukarram insonning tasalli topish maqomi va martabasining mazkur hayvonlar bilan teng mavqedan bo‘lishi naqadar uyat va xunukdir” [5:12], - deya ta’kidlaydi Yusuf Hamadoniy. Darhaqiqat, bunday insonlar hayvonlar kabi eyish, ichish, juftlashish, maskan va liboslari bilan orom va tasalli topadi. Shuningdek, o‘zining insoniy maqomi va darajasini sira o‘ylab ko‘rmaydi. Holbuki, Alloh insonni hayvonlardan ustun, aziz va butun borliqning gultoji qilib yaratib, jamiki mavjudotni unga bo‘ysundirdi. Yusuf Hamadoniy bunday tubanlikka tushgan insonlarga qarata kuyinchaklik bilan murojaat qiladi: “Bu ojiz, bechora va unutuvchan inson “Maxluqotni boshqarish va musaxxar qilish (bo‘ysundirish) libosini menga nima uchun kiydirdilar?”- deb o‘ylamaydimi?”. Ilm, zakovat va idrok tojini butun yaratiqlar orasida nima uchun mening boshimga qo‘ydilar? Ibodat va bandalik yozuvini nega mening peshonamga yozdilar? Ko‘klarda va erda mening nomimni nima uchun do‘stlik va muhabbat bilan mashhur qildilar? Bir yuz mingdan ortiq payg‘ambarlik nuqtasi, sayyidlik unsuri va saodat markazini

barcha maxluqot orasidan nima uchun faqat meni Haqqa da'vat qilish uchun yubordilar? [5:13]” Bu bilan Yusuf Hamadoniy insonni ongli, fahm-farosatlari qilib yaratilganligini ta'kidlab, u insoniylik darajasida yashashi lozimligini uqtiradi. Yusuf Hamadoniy hayvoniylig darajasidan yuqoriga chiqsa olmagan kishilarni g'ofil deb ataydi va aksincha, o'zini anglay olgan hamda insoniylik darajasiga yuksalganlarni ogoh va hushyor kishilar deya ta'riflaydi.

Yusuf Hamadoniy “Rutbat ul – hayot” asarida nafs masalasiga alohida e'tibor qaratadi. U nafsn – “Inson vujudining hammoli va vujud ishlarini bajaruvchi ulov[5:14]”, - deya ta'rif beradi. Yeyish, ichish, kiyinish va oila qurish nafsning istaklaridir. Nafs istaklarini me'yorda saqlash, jilovlay olish inson kamoloti uchun juda muhim hisoblanadi. Nafs istaklari haddan oshsa, me'yordan ortsa inson tubanlashib, nafs quliga aylana boradi. Muallif fikricha, inson bu moddiy olamda qisqa muddat yashab o'tuvchi mavjudot emas. Bu olam inson uchun oxiratning ziroatgohidir. Ya'ni, inson hayoti davomida qilgan har bir ezgu va xayrli amallari oxirat uchun zahira bo'lib yig'ilib boradi. Shuning uchun inson o'z nafsi va istaklariga o'z ehtiyoji darajasida hamda me'yorda munosabatda bo'lishi lozim. Inson hamisha o'z nafsini jilovlay olishi lozim.

Yusuf Hamadoniy insonshunos olim. U har bir insonning ehtiyojlari turlicha bo'lishini, tana xususiyati va mijoz bilan farq qilishini asoslab beradi. Tana insonga ezgu va xayrli ishlar uchun xizmat qilishi lozim. Bu borada Yusuf Hamadoniy quyidagicha fikr bildiradi: “Badan din yo'lida g'oziyning otidan va hojining tuyasidan afzal bo'lmanidek, tuban ham emas”. Ezgulik yo'lida xizmat qilayotgan inson tanasining ehtiyojlarini qondirish hayotiy zaruratdir. Mazkur fikr xalqimizning “Men eyish uchun yashamayman, balki yashash uchun eyman”, degan hikmatli so'zlariga hamohangdir. Hoyu havaslarga berilib, nafs istaklari uchun yashaydigan kishining tanasini Yusuf Hamadoniy qaroqchi va yo'l to'sarlarning oti hamda tuyasiga o'xshatadi.

Xulosa. Yusuf Hamadoniyning “Rutbat ul-hayot” asari qisqacha tahlilidan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Komil inson muammosi har bir zamon va makonda eng dolzarb muammolardan biridir va shunday bo'lib qoladi;
2. “Rutbat ul-hayot” nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan noyob asarlarlardan biridir;
3. Asarda “insoniylik” va “hayvoniylig” sifatlari, belgi va xususiyatlari ochib berilgan;
4. Tana insonning ruhiy kamoloti uchun “ulov” vazifasini bajarishi lozim;
5. Nafs istaklarini me'yorda saqlash, jilovlay olish inson kamoloti uchun juda muhim hisoblanadi.
6. Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda Hamadoniyning “Rutbat ul-hayot” asari kuchli ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Katalog biblioteki «Aya Sofiya». Stambul, 1304g.x./1926g., str.373.
2. Navro‘zova G. Nurmatova N. Yusuf Hamadoniy - yetti pirning tabarruk ustozi / Buxoro: 2016 - 137 b.
3. Рияхи М. А. Ходжа Юсуф Хамадани - «Рутбат ул-хаят» (Степени жизни). Ашгабат. Издатель: Культурный центр Посольства ИРИ в Туркменистане Сентр культурных и международных исследований. 2003. С 155.
4. Tosun Necdet Ceviren. Hayat nedir. (Rutbet ul-hayat). Ahmad Yesevi'nin hocası Hoja Yusuf-I Hemedani. Istanbul, Insan. 2002. 106 b.
5. Xoja Yusuf Hamadoniy. Hayot mezoni (Rutbat ul-hayot).-Toshkent, “Yangi asr avlodī”, 2003 y.,10-11 bet.
6. Navro‘zova G.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: Fan, 2005. – 233 b.